

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.Xamidov</b>	
O'simliklar dunyosi biosferaning muhim va faol komponenti.....	218
<b>Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova</b>	
Ekologik ta'limni dunyo pedagogikasida rivojlanishi .....	221
<b>V.Abdurakhmanov</b>	
New directions in language learning: combination of online resources and blended learning .....	223
<b>S.Uraimov</b>	
O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini to'rt darajali jismoniy mashg'ulotlar zinasini orqali oshirish usullari .....	226
<b>Z.Gapparov</b>	
Yosh futbolchilarning o'yin amplyalariga individual psixologik holatini ta'siri.....	230
<b>J.M.Ishtayev</b>	
O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi futbolchilarning mashg'ulot jarayonidagi psixologik holatini taxlil qilish.....	235
<b>M.Azizov</b>	
"Bioimpedansometriya" yordamida 30-39 yoshli skandinavcha yurish bilan shug'ullanuvchilarning tana tarkibi tuzulishini o'rganish metodikasi .....	239
<b>D.Mavlanov, R.Nazarov</b>	
Shaxs ichki nizolari va ularning fanda o'rganilganlik holati .....	245
<b>M.Mirjamolov</b>	
Paralimpiya sport musobaqalariga zahira sportchilar tayyorlash uchun kinematik va psixo-fiziologik tavsiflari bo'yicha saralash tizimini ishlab chiqish.....	248
<b>Ш.Турсунов</b>	
Методика совершенствования физических показателей борцов.....	252
<b>X.Matnazarov</b>	
Ko'krakda krol usulida suzuvchi 11-13 yoshli sportchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirish .....	257
<b>G'.Xo'jamkeldiyev</b>	
Qisqa, o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni mashg'ulotlar davomida va so'ngida mushaklarni tiklashda maxsus aplikatorni qo'llash samaradorligi .....	261
<b>O.Xasanov</b>	
Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ippoterapiya mashg'ulotlari asosida aqli va jismoniy funksional holatini rivojlantirish.....	265
<b>B.Nabiev</b>	
Расчет пространственной зависимости температуры и температурной неустойчивости термоэлементов .....	270
<b>R.Pirnazarov</b>	
To'g'onli ko'llarda ro'y berishi mumkin bo'lgan toshqin xavfini baholashning genetik asoslari.....	277
<b>M.Ж.Есиркепов, А.К.Анарбаев, И.Б. Курманбаев, А.Р.Мусаева</b>	
Патриотическое воспитание молодежи через достижения в тренерской деятельности а.нурмаханова .....	281
<b>V.Abdurakhmanov</b>	
Alternativ so'roq gaplarning poetik jihatdan o'rganilishi .....	286
<b>A.Sultonov</b>	
Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi.....	288

## EKOLOGIK TA'LIMNI DUNYO PEDAGOGIKASIDA RIVOJLANISHI

## РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В МИРОВОЙ ПЕДАГОГИКЕ

## EKOLOGICAL DEVELOPMENT AND HUMAN PEDAGOGY

**Xalmatova Shoxistaxon Madaminovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti ekologiya kafedrası o'qituvchisi**Maxsudova Gulnora Muxammadjonovna<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti ekologiya kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Butun dunyoda pedagogik tadqiqotlar tizimida ekologiya tushunchasi, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, shuningdek ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, barcha davlatlarda ekologik tushunchalar yosh avlodni ta'lim olish jarayonida bosqichma-bosqich tushuntirib va rivojlantirib borilmoqda.*

**Аннотация**

*Учитывая тот факт, что понятия экологии, разумного отношения к природе, а также экологические проблемы приобретают глобальное значение в системе педагогических исследований во всем мире, экологические концепции постепенно объясняются и развиваются в процессе воспитания детей. молодое поколение во всех странах.*

**Abstract**

*Taking into account the fact that the concept of ecology, reasonable attitude to nature, as well as environmental problems are gaining global importance in the system of pedagogical research all over the world, ecological concepts are being gradually explained and developed in the process of education of the young generation in all countries.*

**Kalit so'zlar:** *Dunyo pedagogik, ekoaxloq, biosfera, ekologik ta'lim, muammolar, ekologiya, tabiat, ijtimoiy-iqtisodiy, modernizatsiyalash, ekosavodxonlik.*

**Ключевые слова:** *Мировая педагогика, экоэтика, биосфера, экологическое образование, проблемы, экология, природа, социально-экономическая, модернизация, экограмотность.*

**Key words:** *World pedagogy, eco-ethics, biosphere, environmental education, problems, ecology, nature, socio-economic, modernization, eco-literacy.*

**KIRISH**

Dunyo pedagogik tadqiqotlar tizimida ekologiya, tabiatga oqilona munosabat va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning global muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masala sanaladi. Shaxsning tabiatga ekoaxloq talablari asosida munosabatini shakllantirishda ekologik ong va madaniyatning o'zaro munosabati, tabiatga nisbatan estetik munosabatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahondagi yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Institute of Humanities and Social Sciences (Polsha), University of Plymouth UK, (Angliya), National Institute Health, (AQSH), National Chiayi University (Tayvan), Saint Petersburg State University (Rossiya) va O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universitetlarida (O'zbekiston) olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda o'quvchilarning munosabatini jamiyat ekologik ongi va madaniyati bilan korrelyatsion va integrativ aloqadorligi, inson bilan tabiatning ekoestetik muloqotini rivojlantirish, manfaat va ehtiyojlarni optimallashtirish masalasi asosiy ilmiy tadqiqot mavzusiga aylangan. Atrof-muhitning qulay ekologik holatini, biosfera muvozanatini, tabiiy landshaftlar komplekslarini va ekologik borliqni estetikallashtirishga qaratilgan ishlar bolalar ongida utilitar estetik qadriyatlarni shakllantirib, tabiatga ekoestetik munosabatini rivojlantirib, zararsiz atrof-muhitni yaratishni ilk asoslarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishni maqsad qilib qo'yimoqda. Bu jarayonda avvalo ekologik ta'limni modernizatsiyalash asosida o'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Shu bilan birga xalqaro ta'lim maydonida ekologik ta'limni takomillashtirish orqali jamiyatda ekologik ma'rifat va mas'uliyatlilik, ekologik ta'limni modernizatsiyalash asosida o'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Jahon va hamdo'stlik mamlakatlari olimlari o'z tadqiqot ishlarida ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratmoqdalar. Ekologik ta'limning pedagogik asoslari

akademik I.D.Zverev, A.N.Zaxlebniylar, tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik ta'lim mazmuni, metodikasi, shakli, vositalari E.O.Turdiqulovning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Ekologik ta'limning biologik yo'nalishi I.T.Suravegina, shuningdek, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini Y.Shodimetov, B.Ziyomuhamedovlar tomonidan o'rganilgan. L.T.Shonosirova, G.O.Komilovalarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish va ekologik ta'lim muammolari MDH pedagog olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Masalan, akademik I.D.Zverev (Ekologik nazariya asoslari), A.N.Zaxlebniy (Ekologik ta'limning pedagogik asoslari), I.Suravegina (Biologiya o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lim berish), I.Matrusov va boshqa bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

#### MUXOKAMA

O'zbekistonda ham ekologik ta'limni modernizatsiyalash asosida o'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirish, ekologik ta'limni rivojlantirish orqali tabiat, ekotizimlar hamda atrof-muhit beqarorligini ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini oshirishga doir chora-tadbirlar, ilmiy izlanishlar va milliy qonunchilik asoslari takomillashtirilmoqda. 2019-yil 27-maydagi «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi»ni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish va shu asosida ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish ham dolzarblik kasb etmoqda.

#### XULOSA

Xususan, «ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda». Shu bois ekologik ta'limni modernizatsiyalash asosida o'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirish jarayonini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, ekologik ta'limni modernizatsiyalash asosida o'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish, ekologik madaniyat tarkibida ekosavodxonlikni rivojlantirish, uning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari, obyektiv va subyektiv omillarini uyg'unlashtirish, o'quvchilarda ekosavodxonlik rivojlanishining ijtimoiy makon va tarixiy zamon bilan integrativ xususiyatlarini aniqlashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Халматова, Ш., & Махсудова, Г. (2022). Экологическое воспитание. *theory and analytical aspects of recent research*, 1(5), 356-362.
2. Abdullayeva, M. T. L., & Maqsudova, G. M. (2021). Ekologik ta'lim va tarbiyada xorijiy tajriba. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 159-165.
3. To'lanovna, A. M., & Maxammadjonovna, M. G. (2021). Ekologik ta'lim va tarbiyada xorijiy tajriba.
4. Xalmatova, S. M., & Maxsudova, G. (2022). Shaxs ma'naviy ongini shakllashtirishda oilaning ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 677-680.
5. Makhsudova, G. (2022). Shaelling ecological consciousness and culture in schoolchildren. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 66-73.
6. Feruzaxon, Q., & Mohinur, B. (2023). Ekologik ongni ta'lim tarbiyada shakllanishi. *Journal of new century innovations*, 20(4), 3-7.
7. Mukhammadjonovna, M. G. (2023). Formation of Ecological Consciousness in Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 16, 1-3.